


## 108. Kattaliklar: uzunlik, massa, hajm

uzunlik  
massa  
hajm



1. Amallarning noma'lum komponentini topib, jadvalni to'ldiring. Darsda nima haqida gap boradi?

A	$14 + \square = 17$	T	$17 - \square = 12$
K	$\square + 10 = 18$	K	$\square + 7 = 14$
A	$15 + \square = 19$	T	$13 + 15 - \square = 27$
I	$18 - \square = 18$	L	$11 + 16 + \square = 29$

8	4	1	5	3	2	0	7



**Kattalik — bu jismning o'lchash mumkin bo'lgan xossasi.**  
**Biz uzunlik, massa va hajm kabi kattaliklarni o'rghanib oldik.**



2. Jadvalga qarang. Narsalarning kattalik bo'lmagan xossalariini o'chiring.

KATTALIKLAR				
uzunlik	rang	hajm	massa	hid




3. 10 litrli qozonda osh tayyorlash uchun oshpaz 2 kg go'sht, shuncha sabzi, shu miqdorda guruch va 1 kg piyoz tayyorladi. Qozon hajmining ortib borishi bilan mahsulotlar miqdori qanday ortib borishini jadvalda ko'rsating.

					Jami
10 l	2 kg	... kg	... kg	... kg	... kg
20 l	4 kg	... kg	... kg	... kg	... kg
30 l	6 kg	... kg	... kg	... kg	... kg



4. Sxema bo'yicha masala tuzing va uning yechimini daftaringizga yozing.



5. Chelakning hajmi — 10 l, qozonning hajmi — 5 l, bankaning hajmi — 3 l.  
Chelakda to'la turgan sutdan 2 l sutni qozonga qanday qiyib olish mumkin?  
To'kib tashlash va boshqa idishlardan foydalanish mumkin emas.

